GIPERGLIKEMIYA VA GLIKATSIYALANGAN GEMOGLOBIN (HBA1C) DIAGNOSTIK AHAMIYATI

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Laboratoriya ishi yo‘nalishi magistri Qayumova Sevara Baxtiyor qizi

Ilmiy rahbar:Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti “Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, biofizika va tibbiy informatika” kafedrasi ilmiy maslahatchisi,PhD Azizova Noila Mirali qizi

Mavzuning dolzarbligi. Giperglikemiya — qonda glyukoza miqdorining me’yoridan yuqori bo‘lishi bo‘lib, qandli diabet va boshqa metabolik buzilishlarda muhim diagnostik ko‘rsatkich hisoblanadi. Uzoq davom etuvchi giperglikemiya organizmda turli biokimyoviy o‘zgarishlarga olib keladi. Shulardan biri glyukozaning gemoglobin bilan birikishi natijasida glikatsiyalangan gemoglobin (HbA1c) hosil bo‘lishidir. HbA1c ko‘rsatkichi oxirgi taxminan 2–3 oy davomida qondagi glyukoza darajasi haqida ma’lumot beradi. Shu sababli HbA1c ni aniqlash qandli diabetni tashxislash va davolash samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur ishning maqsadi. Giperglikemiyaning eritrotsitlar tarkibidagi gemoglobinga ta’sirini o‘rganish hamda glikatsiyalangan gemoglobinning qondagi glyukoza miqdorini uzoq muddatli baholashdagi diagnostik ahamiyatini yoritish.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqotning materiali sifatida giperglikemiya va qandli diabetga oid ilmiy adabiyotlar hamda laborator diagnostika ma’lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. HbA1c ning hosil bo‘lish mexanizmi, uning eritrotsitlar va gemoglobin bilan bog‘liqligi hamda diagnostik ahamiyati o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qondagi glyukoza miqdori uzoq vaqt davomida yuqori bo‘lganda, glyukozaning eritrotsitlar tarkibidagi gemoglobin bilan birikishi kuchayadi va HbA1c miqdori ortadi. Eritrotsitlarning o‘rtacha yashash

muddati taxminan 120 kun bo‘lgani sababli HbA1c ko‘rsatkichi qisqa muddatli glyukoza o‘zgarishlariga emas, balki uzoqroq davrdagi o‘rtacha glyukemiya holatiga nisbatan barqaror ma’lumot beradi. HbA1c ni aniqlashning muhim afzalliklaridan biri shundaki, tekshiruv uchun bemorning och qoringa bo‘lishi shart emas. HbA1c ko‘rsatkichi qandli diabetni aniqlashda, glyukemik nazoratni baholashda va davolash samaradorligini kuzatishda qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, eritrotsitlarning yashash muddati yoki gemoglobin tarkibi o‘zgargan ayrim holatlarda HbA1c natijalarini ehtiyotkorlik bilan talqin qilish talab etiladi.

Xulosa. Giperglikemiya natijasida glyukozaning gemoglobin bilan glikatsiyasi kuchayib, HbA1c darajasi oshadi. Shuning uchun glikatsiyalangan gemoglobin qondagi glyukoza darajasining uzoq muddatli nazoratini baholashda muhim laborator ko‘rsatkich hisoblanadi. HbA1c ni aniqlash qandli diabetni tashxislash va bemorlarda glyukemik nazoratni kuzatishda muhim diagnostik ahamiyatga ega.